ORIGINAL ARTICLE

INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

ISSN: 2692-515-x, Impact Factor: 9.23
American Academic publishers, volume 6, issue 01,2026

Journal: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai

MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARINING IJROCHILIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK MEZONLAR.

Samatova Dilnoza Salaidinovna
Samarqand davlat pedagogika instituti "Musiqa ta'limi" kafedrasi v.b dotsenti
dilnozasamatova@gmail.com

Annotatsiya

Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari ijrochilik malakalarini shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik mezonlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilib, unda ijrochilik malakalarini rivojlantirishda ta'lim mazmuni, pedagogik yondashuvlar, metod va texnologiyalarning o'rni, shuningdek, talabalarning individual qobiliyatlari va ijodiy faolligini hisobga olish masalalari yoritilgan. Shuningdek, musiqa ta'limi jarayonida ijrochilik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi baholash mezonlari, mustaqil mashg'ulotlarni tashkil etish hamda nazariy bilimlarni amaliy ijro bilan uyg'unlashtirishning samarali jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, ijrochilik malakalari, pedagogik mezonlar, musiqa pedagogikasi, ijrochilik kompetensiyasi, ta'lim metodlari, ijodiy faollik, baholash mezonlari, amaliy ijro.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация

Проведен научно-теоретический и практический анализ педагогических критериев, используемых в процессе формирования исполнительских навыков студентов направления музыкального образования, в котором освещены содержание образования, педагогические подходы, роль методов и технологий в развитии исполнительских навыков, а также вопросы учета индивидуальных способностей и творческой активности студентов. Также раскрыты критерии оценки, служащие формированию исполнительских компетенций в процессе музыкального образования, эффективные аспекты организации самостоятельных занятий и сочетания теоретических знаний с практическим исполнением.

Ключевые слова: музыкальное образование, исполнительские навыки, педагогические критерии, музыкальная педагогика, исполнительская компетенция, методы обучения, творческая активность, критерии оценки, практическое исполнение.

PEDAGOGICAL CRITERIA IN THE FORMATION OF PERFORMANCE SKILLS OF STUDENTS IN MUSIC EDUCATION.

Abstract

Pedagogical criteria used in the process of forming performing skills of students in the field of music education are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view, in which the content of education, pedagogical approaches, the role of methods and technologies in the development of performing skills, as well as issues of taking into account the individual abilities and creative activity of students are highlighted. Also, the evaluation criteria that serve the formation of performance competencies in the process of music education,

ISSN: 2692-515-x, Impact Factor: 9.23
American Academic publishers, volume 6, issue 01,2026
Journal: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai

the organization of independent classes, and the effective aspects of combining theoretical knowledge with practical performance are revealed.

Keywords: music education, performance skills, pedagogical criteria, music pedagogy, performance competence, teaching methods, creative activity, assessment criteria, practical perf

Kirish. Musiqa san'ati insoniyat taraqqiyoti jarayonida jamiyatning ijtimoiy hayoti, ma'naviy ehtiyojlari va estetik tafakkuri bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib kelgan san'at turlaridan biridir. Turli tarixiy davrlar, ijtimoiy sharoitlar va estetik qarashlar ta'sirida vujudga kelgan musiqiy namunalar jamiyat madaniy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichiga aylangan. Musiqiy merosning rang-barangligi, murakkab badiiy tuzilishi va boy ifodaviy imkoniyatlari musiqa san'atining inson hayotidagi muhim o'rnini yaqqol namoyon etadi.

Musiqa asarining yaratilishi, ijro etilishi va keng ommaga yetib borishida taniqli musiqashunos B. Asafyev ta'kidlagan "ijodkor – ijrochi – tinglovchi" uchligi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu uchlikning uyg'unligi musiqiy asarning badiiy qiymati va barqarorligini belgilaydi. Mazkur tizimda ijrochi markaziy o'rinni egallab, asarning mazmuni, obrazlari va g'oyaviy yo'nalishini tinglovchiga yetkazuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli ijrochilik faoliyatining sifati va pedagogik asosda shakllanishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. "Ijodkor – ijrochi – tinglovchi" tizimining har bir bo'g'ini o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Biroq ijrochi mas'uliyati alohida e'tiborga loyiq bo'lib, u musiqiy asarning talqini, badiiy ifodasi va estetik ta'sirchanligini belgilaydi. Ijrochilik jarayoni ijodiy yondashuv, individual talqin va vaziyatga mos musiqiy qarorlar bilan chambarchas bog'liqdir. Musiqashunos T. G'ofurbekov monodik asarlar ijrochilarini an'anaviy ijro etuvchilar, mashhur ijrochilar uslubiga taqlid qiluvchilar hamda individual ijro uslubiga ega ijrochilar kabi uch toifaga ajratadi. Ushbu tasnif ijrochilik faoliyatidagi yondashuvlar xilma-xilligini ko'rsatadi.

Talabalarda ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonida pedagogik faoliyat bilan bir qatorda o'ziga xos talablar ham mavjud. Jumladan:

- talabaning doimiy amaliy izlanishda bo'lishi;
- mustaqil mashg'ulotlar orqali ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishi;
- muntazam dars va mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi;
- ustoz bilan hamnafas bo'lib, jo'rnavozlik tajribasini orttirishi muhim sanaladi.

Mutaxassis pedagoglarning ta'kidlashicha, talabalar bilan ishlash, ayniqsa, cholg'u ijrochiligi orqali ularning estetik tafakkurini rivojlantirish murakkab va yuqori kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Bu jarayonda quyidagi nazariy va amaliy mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- cholg'u ijrochiligining o'ziga xos jihatlari va ijro mahoratini shakllantirishga oid bilimlarni egallash;
- musiqa asarining xarakterini chuqur anglash;
- musiqa asarlarining janrlari va ularning ijro xususiyatlarini bilish;
- badiiy-ifoda vositalari (dinamika, ritm, temp, sezura, fermata, o'lchov va boshqalar)ni ijro jarayonida to'g'ri qo'llay olish;
- ansambl ijrosi va sozga tushish bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo'lish;
- ijrochilik texnikalarini mukammal o'zlashtirish.

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida talabalar ijrochilik malakalarini rivojlantirish jarayonida muammoli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bular:

- nazariy va amaliy bilimlarni talab qiluvchi texnik qiyinchiliklar;
- amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bilan bog'liq masalalar;

INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

ISSN: 2692-515-x, Impact Factor: 9.23
American Academic publishers, volume 6, issue 01,2026

Journal: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai

- ilgari o‘zlashtirilgan ijro uslublariga zid bo‘lgan yangi texnikalar bilan tanishish;
- yengil va mukammal ijroni taqqoslash orqali tahliliy fikrlashga undash.

Ijrochilik mahoratini oshirishda muammoli vaziyatlar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- asarning asosiy intonatsion g‘oyasini aniqlash;
- musiqiy asarning uslubini eshitish orqali belgilash;
- bir kompozitor asarini boshqalari orasidan farqlash;
- ijrochilik uslubining o‘ziga xos tomonlarini ochib berish;
- musiqaga mos sur’at, rang va badiiy ifoda vositalarini tanlash.

Mazkur maqsadga erishish uchun mashg‘ulotlarda:

- turli ijrochilik namunalari audio va video vositalar orqali tahlil qilinishi;
- asardagi qiyin va tayanch qismlar aniqlanishi;
- bir asarning bir nechta ijro variantlari ishlab chiqilishi;
- asarni turli talqinlarda ijro etish mashq qilinishi;
- texnik vosita bilan bir vaqtda ijro qilish usuli qo‘llanilishi zarur.

O‘zbek musiqa ijrochiligi tarixida Ota G‘iyos, Ota Jalol, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Sodirxon Hofiz kabi ustoz san’atkorlar ijodi yuksak ijrochilik maktabining yorqin namunasidir. Ularning ijodiy merosi bugungi yosh ijrochilar uchun pedagogik va estetik mezon vazifasini bajaradi.

Ijrochilik tushunchasi iste’dod, musiqiy bilim, eshitish qobiliyati, texnik mahorat, badiiy tafakkur va ijodiy yondashuv kabi omillar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ijrochilik faoliyatida umumiy va maxsus qobiliyatlarning uyg‘unligi muhim bo‘lib, bu jarayon ta’lim-tarbiya orqali shakllanadi. Talabaning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda pedagogik muhit va to‘g‘ri yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar muhim rol o‘ynaydi.

Musiqa ta’limida sinf ishlari ijrochilik malakalarini rivojlantirishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Sinf ishlari orqali talaba qisqa vaqt ichida turli musiqiy asarlar bilan tanishadi, ijro usullarini egallaydi va musiqiy tafakkurini boyitadi. Repertuar tanlashda asarlarning xarakteri, mazmuni va talabaning qiziqishlari hisobga olinishi lozim.

Oddiy va yirik shakldagi asarlarning ijrochilik xususiyatlari ham pedagogik jarayonda alohida ahamiyatga ega. Oddiy shaklli asarlarda ifodaviy aniqlik, soddalik va texnik tozalik muhim bo‘lsa, yirik shaklli asarlarda mavzuni rivojlantirish, dramaturgik yaxlitlik, emotsional barqarorlik va badiiy konsepsiyani ochib berish talab etiladi. Oddiy va yirik shakldagi musiqiy asarlarning ijrochilik xususiyatlari musiqa ta’limi jarayonida, shuningdek, adabiy va sahna san’ati kontekstida turlicha namoyon bo‘ladi. Quyida mazkur jihatlar asosan musiqiy asarlar misolida yoritilgan bo‘lsa-da, ularni boshqa san’at turlariga ham tatbiq etish mumkin.

Oddiy shakl – hajman ixcham, bir yoki ikki qismdan tashkil topgan, tuzilishi sodda bo‘lgan musiqiy asarlardir. Masalan: qo‘shiqlar, kuylar, etyudlar, prelyudiyalar, xalq kuylarining qayta ishlangan namunalari va boshqalar. Oddiy shaklli asarlarning ijrochilik xususiyatlari quyidagi omillarni qamrab oladi:

1. Ifodaviy aniqlik - qisqa shaklli asarlarda har bir ohang, dinamika, pauza va intonatsiyaning aniq va ravshan ifodalanishi talab etiladi.
2. Yakkaxon ifoda - asar, odatda, bitta badiiy obraz yoki muayyan hissiy holatni (masalan, quvonch, sog‘inch, raqs kayfiyati) ifodalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.
3. Texnik tozalik - shaklning ixchamligi sababli har bir nota yoki tovushning tiniqligi va aniqligi alohida ahamiyat kasb etadi.
4. Bir nafasda ifodalash - qisqa asar yagona kayfiyatni uzluksiz va yaxlit holda yetkazishni talab qiladi.

ORIGINAL ARTICLE
INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE
ISSN: 2692-515-x, Impact Factor: 9.23
American Academic publishers, volume 6, issue 01,2026
Journal: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai

5. Tabiiylik va soddalik - ortiqcha dramatik kuchayishlar va murakkab o‘tishlarsiz, musiqiy materialni tabiiy ohangda ijro etish muhim hisoblanadi.

Yirik shakl - bir nechta qismlardan iborat, rivojlanish va kontrastlarga asoslangan, hajman katta bo‘lgan musiqiy kompozitsiyalarni o‘z ichiga oladi. Masalan: sonata, simfoniya, konsert, opera, oratoriya, doston, poema va boshqa yirik shakldagi asarlar. Yirik shaklli asarlarning ijrochilik xususiyatlari quyidagi omillar orqali namoyon bo‘ladi:

1. Mavzuni rivojlantirish qobiliyati - ijrochi asar davomida bir nechta obraz va holatlarni izchil hamda bosqichma-bosqich ochib berishi lozim.

2. Dinamika va temp o‘zgarishlari - yirik shaklli asarlarda dramatik cho‘qqilar va keskin kontrastlar ko‘p uchraydi, ijrochi ularni oldindan rejalashtirib, yaxlit badiiy oqimda bog‘lab ijro etishi zarur.

3. Tuzilmani anglash zarurati - asarning umumiy rejasi, qismlar o‘rtasidagi mantiqiy va musiqiy bog‘lanishlarni chuqur tushungan holda ijro etish talab etiladi.

4. Emotsional barqarorlik - uzoq davom etadigan asarlarda hissiy kuchni oqilona taqsimlash va barqaror saqlash ijrochilik mahoratining muhim ko‘rsatkichidir.

5. Ansambl uyg‘unligi (jamoaviy ijroda) - orkestr yoki xor ijrosida intonatsiya, temp va ritmning birligi, o‘zaro musiqiy muvofiqlik yuqori darajada ta’minlanishi lozim.

Badiiy konsepsiyani ochish - yirik shaklli asarlarni ijro etish jarayonida ijrochidan nafaqat texnik yetuklik, balki chuqur falsafiy mushohada, hissiy teranlik va badiiy mazmunni to‘laqonli yetkazish mahorati talab etiladi.

Xulosa. Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarida ijrochilik malakalarini shakllantirish murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda nazariy bilimlar bilan amaliy ijroning uyg‘unligi, ustoz–shogird an’analari, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish va sinf ishlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijrochilik mahoratini pedagogik mezonlar asosida shakllantirish bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi hamda ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Qudratov I. Odilov A. ”Cholg‘u asboblarida ijrochilik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish”., Uslubiy qo‘llanma., SamDU., 2015 yil.
4. Rahimov Sh., Saidov A. “Sharq allomalarining musiqiy qarashlari”., “Musiqa nashriyoti”., Toshkent., 2011 yil.
6. Samatova D.S. “Cholg‘u ijrochiligi” Samarqand., 2024 yil.
7. Karayev N. Musiqa ta’limida metodik qo‘llanmalar. T.: “Fan nashriyoti”. 2016 yil
8. Rasulova M. (2020). “Talabalarning ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi”. O‘zbekiston musiqa pedagogikasi jurnali, 2020 yil, 12(3), 45–53-betlar.
9. https://uz.wikipedia.org/